

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH
TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI,
YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI”
XALQARO ILMIIY - AMALIIY ANJUMAN**

17-18 May 2024 yil

III

Toshkent - 2024

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING
DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI”
XALQARO ILMIY - AMALIY ANJUMAN [Matn]. – Toshkent: TDPU nashriyoti,
2024. -610 bet.**

Tahrir hay‘ati:

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxonovna – PhD, dotsent
Yuzlikayev Farit Rafailovich – p.f.d., professor
Salayeva Muborak Saburovna – p.f.n., professor v.b.
Islamova Gulchehra Tashpo‘latovna - PhD, dotsent v.b.
Uralova Gulbahor O‘ktamovna - PhD, dotsent v.b.

Taqrizchilar:

Hakimova Muhabbat Fayziyevna – p.f.d., professor
Jumanazarov Umid Umrzoqovich - p.f.d. (DSc), dotsent

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan rejaga asosan 2024-yil 17-18 may kuni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida “Yangi O‘zbekistonda boshlang‘ich ta‘limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy – tehnika kengash yig‘ilishining 2024-yil 10-maydagi 5-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

7-10 YOSHLI O`QUVCHILARNI JISMONIY RIVOJLANISHIDA SUZISHNING AMALIY AHAMIYATI

Tojiboyev Muzaffar Ma`rufovich

Toshkent tibbiyot akademiya o`qituvchisi

Yunusova Dildora Saloxidinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotasiya. Maqolada 7-10 yoshli bolalar bilan jismoniy tarbiya mashgʻuloti jarayonida jismoniy sifatlarni va jismoniy tayorgarligini oshirishda slomatligini mustaxkamlashda suzishni ahamiyati haqida yoritib berildi.

Kalit zo`slar: Jismoniy tarbiya, maktab yoshi, sport, suzish, mashgʻulot, suv havzasi, jismoniy sifatlarni, jismoniy tayorgarligi, suvsporti, ko`nikma, malaka, sportchilar,

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son Farmoniga muvofiq hamda suv sporti turlari bo`yicha sport zaxirasi va yuksak mahoratli sportchilarni tayyorlash, suv sportiturlari bo`yicha bolalar trenerlarini tayyorlashva seleksiyaishlarini yo`lga qo`yish, sport muassasalari murabbiylari va xodimlarini moddiy ragbatlantirish tizimini takomillashtirish bo`yicha juda katta muhim vazifani qo`ydi. Bunda jismoniy tarbiya va sport bo`yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta`minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida 3 va 6 oylik qisqa muddatli suv sporti turlariga o`rgatadigan mutabbiylarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash o`quv kurslarini tashkil etishsuvxavzalarinisuvsportiturlaribilanshug`ullanishbo`yichao`quvregalari,dasturlar va adabiyotlarbilan ta`minlanishi va shunga o`xshagan ko`plab vazifalar qo`yildi.¹¹

Respublikamizda jamiyatning barcha sohalarini yangilash, rivojlanitirish, ildamlashtirishjarayoniga faol kirishmoqda. Bu yo`lda jismoniy tarbiya va sport ilmiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Bejiz emaski xukumatimizning qarorlarida jismoniy tarbiyavasportning aholi keng qatlamlari o`rtasida yanada keng yoyish umum davlat ishi, barcha xo`jalik jamoat tashkioltlarimehnat jamoalariningburchi ekanligi ta`kidlangan. Kishilarda soglom turmush tarzining shakllantiruvchi yangidan yangi aniq vazifalar belgilab berilgan. Hozirda ayniqsa, bolalarni gudaklikdan boshlab mustaqil jismoniy mashg`ulotlarga keng jalb kilish, chidamli, chaqqon bo`lib o`sishtirish juda e`tibor berish zarur.

Suzish bu jismoniy harakat bo`lib suvning osti-yoki ustida hechqanday tashqi kuch ta`sirisiz harakatlnishdir.

Suzish mashg`ulotlaridan oldin bolalar bilan maxsus suhbat o`tkaziladi. Ularga dushda yuvinayotgan paytda, suvda va mashg`ulotdan keyin rioya qilinadigan shaxsiy gigiyena qoidalari haqida so`zlab beriladi. Bolalarni yana basseynida, yechinish xonalarida, dushda bo`lish tartib qoidalari bilan tanishtiriladi, suv muolajalari, sog`likni mustahkamlash uchun cho`milish va suzish, chiniqish haqida

¹¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son Farmoniga muvofiq hamda suv sporti turlari bo`yicha sport zaxirasi va yuksak mahoratli sportchilarni tayyorlash, suv sporti turlari bo`yicha bolalar trenerlarini tayyorlash va seleksiya ishlarini yo`lga qo`yish, sport muassasalari murabbiylari va xodimlarini moddiy ragbatlantirish tizimini takomillashtirish.

soʻzlab beriladi, basseyn xonasini koʻrsatish va har kimda qanday choʻmilish anjomlari boʻlishi zarurligini tushuntirib berish zarur [5, 36-b.].

Basseyn mashgʻuloti uchun har bir bola sochiq, sovun, rezina bosh qalpoq, choʻmilish kiyimi, almashtirish uchun oyoq kiyimi, mochalka, taroq boʻlishi kerak.

Oʻquvchilarning gigiyenik tarbiyasi va koʻnikmalari unda jamoat joylarda, hayotda toʻgʻri xulqqa ega boʻlishi, shaxsiy va jamoat gigiyenasini shakllantirishni, sogʻlikni asrash ahamiyatli rol kasb etadi. Maktabda, uyda turli turdagi faoliyatga ijobiy taʼsir koʻrsatishga koʻmaklashadi.

Gigiyena tarbiyasi, maktab tashkilotlarida, oʻquv-tarbiyaviy jarayonning hamda jismoniy sogʻlomlashtirish ishlarining ajralmas qismi boʻlishi kerak.

Suzish jarayonida bolalarda suv muolajalariga boʻlgan odat, ularga zaruriyat ularga ijobiy munosabat shakllanadi, suv muolajalari bilan bogʻliq boʻlgan zarur harakatlarni mustaqil ravishda shakllantirish maxorati ortadi, va shu bilan birga gigiyena koʻnikmalari- tozalik, saranjomlik xislatlari mustaxkamlanadi.¹²

Suzish mashgʻulotlarining muvaffaqiyatli oʻtishi uchun bolalarda mustaqil yechinish va kiyinish, aniq ketma-ketlikni saqlagan xolda, kiyimni tartib bilan buklab qoʻyish yoki osish, oyoq kiyimini joyiga qoʻyish koʻnikmalarini shakllantirish kerak.

Bolalarga suzishdan oldin dushda yuvinib chiqishni esiga solish kerak, bunda ularga yordam berish kerak, ularni mustaqil artinib, taranishiga oʻrgatish kerak.

Murabbiy-yoʻriqchi shuni esda tutishi kerak-ki bola tarbiyasida yuqori natijalarga erishish uchun shaxsiy gigiyena va oddiy jamoa gigiyena qoidalarini bajarish (axlat tashlamaslik, mebel va devorlarni kir qilmaslik, xonaga kirishdan oldin oyoq kiyimlarini artish, xulqiy madaniyati, saranjomlik va intizomlilik maxoratini shakllantirish kerak. Bolalarni oʻrab turgan kattalarning oʻzlari ozoda va gigiyena sogʻlik uchun zarurligini tushuntirish katta ahamiyatga ega [6, 86-b.].

Ochiq suv xavzalarida mashgʻulotlar uzoqligi mavsum boshida 5-10 daqiqa keyinchalik esa asta-sekinlik bilan 90 daqiqaga choʻziladi.

Suv havzasida murabbiy yoʻriqchisi bilan bolalar kuzatuvchisi bir – biri bilan kelishilgan holda ishlashi maqul. Bolalarning suvga tushishi va chiqishi faqatgina murabbiyning ruxsati bilan bajariladi. Bolalar suvga tushayotganda ham chiqayotganda ham albatta sanaladi. Choʻmilish paytida bolalar hamshira kuzatuv ostida boʻlishi kerak.

Suvdan chiqib bolalar quruq artinishi kerak, quruq kiyimlar kiyish kerak. Murabbiy yoʻriqchi har bir bolaga mashqlarni qanday bajarilganligini va uyga vazifa – suvda yuzni tiqib turishni oʻrganish, qoʻl harakatlarini va suvda nafas chiqarishni oʻrganishni buyuradi.

Bolalarni suzishga oʻrgatishda koʻpincha yopiq turdagi kam hajmli suv havzalardan foydalaniladi. Boshlangʻich mashqlarni bajarishda 12,5x6 m xajmdagi suv havzalar foydalaniladi. Mashqlarni tashkil qilishda standart shaklidagi suv havzalardan foydalanilishi yaxshi natija beradi.

¹² Korbut V.M., Islamov I.S. Suzish nazariyasi va uslubi. Oʻquv qoʻllanma. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 192 bet.

Educating the Student Body” Taking Physical Activity and Physical Education to School 2013.

Suv havzalarning eng qulay shakli bu to'g'ri to'rt burchakliligiga, ya'ni boshqachasi xam bo'lishi mumkin.

Suv havzalarda qulay zinalar bo'lishi kerak. Ular bolalarni suvga tushib chiqishini ta'minlaydi. Eng yaxshisi zina vertikal o'rnatilgan bo'lganligi va albatta ushlagichlari bo'lgani. Zinalarni xavfsiz bo'lishi uchun ular rezinalar bilan qoplanadi, basseyn dan chiqish va dush xonalari ham rezinalar bilan qoplanadi.¹³

Suv havzalarning 2 tomoniga bolalarning xavfsizligi uchun ushlagichlar o'rnatiladi. To'liklarga qarshilik uchun jilob o'rnatiladi. Bular mashqlarni bajarishda ham qo'llaniladi.

Suv havzalarning badiiy tasvirdajihozlash ham juda yaxshi. Pol va devorlarni bir xil plitka bilan ajratish kerak.

Suv havzalarda ikkita yechinish xonalari bo'lishi kerak. Ular veshelka va sochiqlar uchun bo'linmalar bilan jihozlanadi. Yechinish xonasidagi pol isitiladi yoki rezina gilamchalar to'shaladi.

Suv havzalarda albatta mashg'ulotlar oldidan va keyin cho'milish uchun dush xonasi, tualet bo'lishi kerak. Dush xonalar va xojatxonalar soni basseynlar hajmidan kelib chiqiladi.

Kam hajmli suv havzalarda suvni har kungi almashishi sanepidstansiya vakillari orqali amalga oshiriladi. Dezinfeksiya har suv almashganda qilinadi. Basseynni sovunli eritma bilan yuvib, chiyotkalanadi va issiq suv bilan chayiladi.

Suv havzalardan foydalanishda ularni har kuni yig'ishtirish, havo almashtirish, dezinfeksiya qilish kiradi. Yo'laklarni, ushlagichlarni, skameykalarini, gilamchalarni, veshelkalarni har kuni 0,5-1% xlorli eritma bilan tozalanadi, basseyn tepalari 2m orasida ham yig'ishtiriladi.

Salomatlik posbonlari va sanepidstansiya vakillari suv havzalarni nazorat qiladilar.

Maktab qoshidagi suv havzalar nafaqat maktabdagi bolalar uchun, balki uning atrofidagi bolalar ham kelibketishi uchun qulay bo'lishi kerak. Bunday suv havzalarda yechinish xonalarida qo'shimcha ustki kiyimlar uchun shkaflar bo'lishi kerak.

O'quvchilarni suzishga o'rgatishga madaniy sport binolaridagi "qurbaqa" lardan ham foydalanish mumkin. Bunday suv havzalarda ham hamma shart sharoitlar muxayyo bo'lishi kerak.

Mashg'ulotlar uchun qurilgan binolar har tomonlama qulay bo'lishi kerak. U sanitar gigiyenik qoidalarga javob berishi kerak, jihozlangan bo'lishi kerak, sochiq va cho'milish kiyimlarini qo'yadigan joylar va tozalash anjomlari bilan to'ldirilgan bo'ladi. Jihozlanayotganda bolalarning shikast olmasligini hisobga olish kerak.

Suv havzalarni jihozlashda xuddi shunday qoidalarga rioya qilish kerak.

Yoz oylarida ochiq suv havzalarda mashg'ulotlar olib boriladi.

Agar yer uchastkasida joy bemalol bo'lsa, 2 ta basseyn qurish mumkin, kichigi 7x3, kattasi 12,5x6 m bo'lishi mumkin. Yechinish xonasida bolalarning bo'yini hisobga olgan holda soch quritish moslamalari bo'lishi kerak.

¹³ Yunusova D.S. Tojiboyev M.M. Safojev X. Suzish va uni o'qitish metodikasi O'quv qo'llanma -T 2022- 188 b.

Yaxshi quritilgan soch va yaxshi artilgan tana bolalarga mashg'ulotdan keyin ko'chaga chiqish imkonini beradi.

Yopiq suv havzalar yaxshi ventillyatsiya qilinishi kerak. Basseyndan chiqishda sovuqotmaslik uchun pol va yo'laklar isitilishi kerak. Yelvizak bo'lmasligi uchun hamma chora tadbirlar ko'rilgan bo'lishi kerak. Suv haroratini $+27...+29\text{ C}$ da ushlab turish kerak.

Suv havzalardagi havo uning hajmiga karab mashg'ulotlarni o'tkazish vaqtiga, bolalarning sog'lig'iga qarab belgilanadi. Sog'lom va yaxshi chiniqqan shug'ullanuvchilar uchun suv harorati $+27\text{ C}$ gacha tushirilishi mumkin, bu harorat ularni chiniqtiradi. Basseyndagi suvning sifati "ichimlik suvi" standartiga javob berishi kerak.

Bolalarni suzishga o'rgatishdagi asosiy qoida suv havzasi sanitar gigiyenik qoidaga amal qilishdadir. Suv suv havzasining hajmidan qat'iy nazar albatta tozalanishi kerak.

Ulardan issiq kunlarda foydalaniladi. Bunday suv havzalar cho'milish, bolalarni suvga o'rgatish va chiniqtirish bilan kifoyalanadi. Ulardan suzishni o'rgatishda foydalanilmaydi. Mikrorayonlarda bolalarni jismoniy tarbiyaga nafi tegadigan 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun suv havzalar qurilganligi ma'qul.

Mikrorayonlardagi ochiq suv havzalarda yechinish xonalari, skameykalar, dush xonasi, tualet, kiyim ilgichlar bo'lishi kerak [13-230b.].

Ochiq basseynlarda mashg'ulotlar o'tkazilganda barcha sanitar-gigiyena qoidalariga rioya qilishi kerak: suvning sifati, tozalik, bolalarni har xil mashg'ulotga tayyorgarligi. Birinchi mashg'ulotlarni xavo xarorati $+24..+25^{\circ}\text{C}$ bo'lganda boshlash kerak.

Isitish moslamalari yo'qligi tufayli bolalarning sovuqotishini oldini olish kerak. Bolalarning suvda bo'lishi bunday haroratda qat'iy nazorat qilinishi va asta-sekinlik bilan oshirib borilishi kerak. Keyinchalik pastroq temperaturada ham mashg'ulotlarni o'tkazish mumkin. $+22^{\circ}\text{C}$ haroratda mashg'ulotlarni o'tkazmasdan, ularni dush ostida cho'milish va qisqa cho'milishlar bilan almashtirish mumkin.

Boshlang'ich sinflar uchun cho'milish qisqa bo'lishi kerak. Ularni yopiq suv havzalarda suzishga o'rgatishda suv harorati $+25..+26^{\circ}\text{C}$ bo'lishi kerak.

O'quvchilarni suzishga o'rgatishda yig'ma suv havzalardan ham foydalanish mumkin. Ulardagi sharoit ochiq turdagi basseyndagiga yaqin bo'lishi kerak. Agar bolalarni ochiq yoki yopiq turdagi suv havzalarda o'rgatish imkoni bo'lmasa tabiiy ko'l va daryolardan foydalaniladi. Cho'milish joyini tanlashda havo harorati, qirg'oq, suv harorati, oqin hisobga olinadi.

Cho'milish joyi tekis qum bilan qoplangan bo'lishi kerak. Suv tubi oldindan har xil narsalardan tozalangan bo'lishi kerak. Sayoz va chuqur joylar asta-sekinlik bilan o'tadigan bo'lishi kerak. Suvning chuqurligi o'lchangan bo'lishi kerak. U har xil chuqurliklardan holi bo'lishi kerak.

Shuni unutmazlik kerakki, kichkina to'lqinlar ham mashg'ulotga halaqit beradi. Bunday holatlarda maxsus asboblardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Maxsus asbobni yasash qiyin emas. Ikkita tozalangan taxtani(300×20×5sm). bog‘lab, unga 5 ta qutqarish doiralari qo‘shiladi. Buni tosh-yakerga bog‘lab suvga tushiriladi. Bir nechtasini bir-biriga bog‘lash mumkin. Shunda bolalar o‘zlarini xavfsiz sezadilar, chunki to‘lqinlar so‘nadi.

Agar bolalarning ochiq suv havzalarida cho‘milishiga imkoni bo‘lmasa, eng oddiy cho‘milish havzasini qirg‘oq yaqiniga qurish mumkin. O‘quvchilarni suzishni bilishga o‘rgatishga astoydil kirishish kerak.

Ochiq suv havzalarida o‘quvchilarni suzishga o‘rgatishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak: cho‘milishni issiq, shamolsiz kunda boshlash zarur. Bunda havo xarorati+24..+25°C, suv harorati +22°C bo‘lishi kerak. Bolaning suvda bo‘lishi nazorat qilinishi va asta-sekinlik bilan oshirilib borishi kerak. Juda issiq kunlarda bolalar kunning birinchi yarmi va ikkinchi yarmida cho‘milishlari mumkin. Bolalarning suvda turish ko‘nikmasiga qarab mashg‘ulotlarni sovuqroq havo va suvda ham olib borish mumkin. Bunda suvda turishni qisqartirish kerak.

Suvdagi (cho‘milayotgan) bolalar kattalar nazorati ostida harakatlanishi, o‘ynashi zarur. Bolalarda qaltirash, tana xaroratiko‘tarilishi, “o‘rdak badan”lik belgisining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Shu belgilar paydo bo‘lganda bolani suvdan chiqarib olish, tez harakatlar bilan quruq sochiq bilan tanani och – qizil tusga kirguncha artish lozim, quruq kiyim bosh kiyg‘izib, uni bir necha jismoniy mashqlar bajarishga, yugurib o‘zini qizdirib olishga imkon berish zarur. Suvdan chiqqach, bolani hattoki issiq kunlarda ham nam kiyimda qoldirish mumkin emas, unga albatta quruq kiyim kiygizish lozim. Shu bilan birga bolani oftobda uzoq vaqt qolib ketmasligi nazorat qilinishi lozim. Cho‘milishdan oldin uzoq vaqt oftob vannalari qabul qilish tavsiya etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida» 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son Farmoni

2. Булгакова Н.Ж. Плавание- М.: Физкультура и спорт, 1999.-34б

3. Булгакова.Плавание: Учебник для вузов - М: Физкультура и спорт, 2001.

4. Плавание: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских Олимпийского резерва – М.: Советский спорт 2004 – 216 с

5. Платонов В.Н. Плавание. -Киев: Олимпийская литература 2000. – 290 с.

6. Современная система спортивной подготовки / под ред Ф.П. Сулова, В.Л. Сыча, Б.Н. Шустина – М.: 1995- 446 с

7. Садыков А. Г. Планирования тренировочных нагрузок избирательной направленности в спортивном плавании. – Т 2007-4 с

8. Korbut V.M., Islamov I.S. Suzish nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 192 b.

9. Educating the Student Body” Taking Physical Activity and Physical Education to School 2013. - 37gr.

10. Scott Riewald. Scott Rodeo. Science of Swimming Faster, 2015 United States: Human Kinetics.

11. Sheila Taormina, Swim speed strokes, Darslik, 2014, USA, Boulder, Colorado. 11. Alan Lynn, Swimming: Technique, Training, Competition Strategy, USA, 2015, Crowood Sports Guides.

12. Geyger A.I., Po‘latxo‘jayeva M.I. Suzish nazariyasi va uslubiyati T-2015 444 bet.

13. Korbut V.M., Isroilova R.G. o‘yinlat orqali suzishni o‘rganamiz-T 2019-230 b.

14. Yunusova D.S. Tojiboyeb M.M. Safoyev X. Suzish va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma -T 2022- 188 b.

PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Toshnazarova Uzukoy Azizberdi qizi


JDPU Pedagogika ta‘limi nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmi. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari. Pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik kasbiy kompetentlik, individual rivojlantirish dasturi, pedagogning individual rivojlanish dasturi.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:



2-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (A.K.Markova)

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH
TA‘LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI,
YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI”
XALQARO ILMIIY - AMALIIY ANJUMANI**

17-18 May 2024 yil

III

Bosishga ruxsat etildi. 16.05.2024 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 46.00, Adadi 200. Buyurtma № 48
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a.